

INGLIZ VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARINING O'XSHASH VA FARQLI TOMONLARI**Bekberganova Gulrux Maqsudbekovna***Magistr*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek ertaklaridagi qahramonlarni sinovlardan o'tkazish jarayoni taqqoslanadi. Maqola madaniy va geografik xususiyatlar, qahramonlarning ijtimoiy mavqei, sehrli elementlar, axloqiy mazmun va yovuzlik obrazlari kabi beshta asosiy jihatni o'z ichiga oladi. Ingliz ertaklarida o'rmonlar, qal'alar va qirolliklar muhitida yashovchi qirollar va shahzodalar ko'proq uchraydi, ularning muvaffaqiyati ko'pincha individualizmga asoslangan. O'zbek ertaklarida esa cho'l va tog' muhitida oddiy dehqonlar yoki kambag'al yigitlar qahramon sifatida namoyon bo'lib, jamoaviylik va oila yordami bilan muvaffaqiyatga erishadi. Sehrli elementlar ham farq qiladi: ingliz ertaklarida peri va afsungarlar, o'zbek ertaklarida esa devlar va ajdoholar ko'proq uchraydi. Yovuzlik obrazlari ham har ikki madaniyatda turlicha ifodalangan. Ushbu taqqoslash orqali madaniy farqlar va ularning qahramonlar tasviridagi aks-sadolari ochib beriladi.

Kalit so'zlari: Ingliz xalq ertaklari, o'zbek xalq ertaklari, sehrli yordamchilar, qahramonning sinovlari, xalq og'zaki ijodi, madaniy farqlar, sehrli elementlar, pari va afsungarlar, devlar va ajdaholar, ijtimoiy mavqe, axloqiy mazmun, yovuzlik obrazlari, individualizm, geografik muhit

Annotation: This article compares the process of testing heroes in English and Uzbek fairy tales. It encompasses five key aspects: cultural and geographical characteristics, the social status of the characters, magical elements, moral content, and representations of evil. In English fairy tales, heroes such as kings and princes are more commonly found in settings like forests, castles, and kingdoms, with their success often based on individualism. In contrast, Uzbek fairy tales feature ordinary peasants or poor young men as protagonists, who achieve success through collectivism and family support in desert and mountain environments. The magical elements also differ: English tales prominently feature fairies and wizards, while Uzbek stories often include demons and dragons. The representations of evil are expressed differently in both cultures as well. This comparison reveals the cultural differences and their reflections in the portrayal of heroes.

Key word: English folk tales, uzbek folk tales, magical helpers, hero's trails, oral folklore, cultural differences, magical elements, fairies and wizards, demons and dragons, social status, moral content, representations of evil, individualism, geographical setting

Аннотация: В этой статье сравнивается процесс испытания героев в английских и узбекских сказках. Она охватывает пять ключевых аспектов: культурные и географические характеристики, социальный статус персонажей, магические элементы, моральное содержание и представления о зле. В английских сказках герои, такие как короли и принцы, чаще всего встречаются в таких местах, как леса, замки и королевства, а их успех часто основан на индивидуализме. В отличие от этого, в узбекских сказках главными героями

являются обычные крестьяне или бедные молодые люди, которые достигают успеха благодаря коллективизму и поддержке семьи в условиях пустыни и гор. Магические элементы также различаются: в английских сказках ярко представлены феи и волшебники, тогда как в узбекских историях часто встречаются демоны и драконы. Представления о зле также выражены по-разному в обеих культурах. Это сравнение выявляет культурные различия и их отражение в изображении героев.

Ключевые слова: Английские народные сказки, узбекские народные сказки, волшебные помощники, испытания героя, устное народное творчество, культурные различия, волшебные элементы, феи и волшебники, демоны и драконы, социальный статус, нравственное содержание, образ зла, индивидуализм, географическая среда

Ingliz va o'zbek sehrli ertaklari madaniyatlar, urf-odatlar va dunyoqarashlar o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklarni aks ettiruvchi ajoyib folklor asarlaridir. Ingliz va o'zbek ertaklaridagi sehrli yordamchilar – ertaklarning muhim qismi bo'lib, ular qahramonlarga sinovlardan o'tishga, yomonlikni yengishga va muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi. Ushbu yordamchilar har bir xalqning madaniyati, urf-odatlarini va dunyoqarashini aks ettiradi. Men ushbu maqolamda ikki millat ertaklarining farqli va o'xshash tomonlarini yoritib bermoqchiman. Quyida ingliz va o'zbek xalq sehrli ertaklarining o'xshash tomonlari sanab o'tiladi.

Ingliz ertaklaridagi sehrli yordamchilar va ularning xususiyatlari:

1. Sehrli mavjudotlar:

Ingliz ertaklarida pari, afsungar, sehrli hayvonlar yoki g'ayritabiiy kuchga ega mavjudotlar yordamchi sifatida namoyon bo'ladi. Masalan:

Pari (fairy):

Parilar kichik, g'ayrioddiy kuchlarga ega bo'lgan mehribon mavjudotlardir. Masalan, "Zolushka" ("Cinderella") ertagida sehrli pari qahramonga qiyin vaziyatdan chiqishga yordam beradi.

Sehrli hayvonlar:

Ba'zi ertaklarda hayvonlar (tulki, qush, ot) sehrli qobiliyatlari bilan qahramonning vazifalarini bajarishiga yordam beradi. Masalan, "Puss in Boots" ("Botinkadagi mushuk") ertagida mushuk o'z aql-zakovati va rejaları bilan yordam beradi.

Sehrli buyumlar:

Ingliz ertaklarida qahramonlarning yordamchisi ko'pincha sehrli buyumlar shaklida bo'ladi:

Sehrli tayyoqcha, sehrli oyna, sehrli loviya, sehrli xalcha kabi buyumlar yordam beradi. Masalan, "Jek va loviya daraxti" ertagida sehrli loviya qahramonni mo'jizaviy olamga olib chiqadi.

Afsungarlar va sehrgarlar:

Ingliz ertaklarida mehribon afsungarlar yoki sehrgarlar qahramonga yordam beradi. Masalan, "Qor malikasi" ("Snow Queen") ertagida mehribon afsungar qahramonga yo'l ko'rsatadi.

O'zbek ertaklaridagi sehrli yordamchilari va ularning xususiyatlari

1. Sharqona mifologik mavjudotlar:

O'zbek ertaklarida sehrli yordamchilar ko'pincha sharqona mifologik obrazlar shaklida uchraydi. Masalan:

Pari:

Pari mehribon va pokiza mavjudot bo'lib, ko'pincha qahramonga sehrli kuchlari bilan yordam beradi. Masalan, "Zumrad va Qimmat" ertagida Zumradning xaloskorlari orasida pari uchraydi.

Dev:

Garchi devlar ko'pincha yovuz kuch sifatida tasvirlansa-da, ayrim hollarda qahramonga yordam beruvchi devlar ham uchraydi. Bu yordamchilar odatda qahramonning jasorati va mehribonligi evaziga unga yordam beradi. Masalan,

Sehrli buyumlar:

O'zbek ertaklarida ham sehrli buyumlar yordamchi sifatida namoyon bo'ladi:

Sehrli uzuk, sehrli qilich, sehrli idish yoki yelpig'ich kabi buyumlar qahramonga sinovlarni yengishda yordam beradi. Masalan, "Sehrli uzuk" ertagida uzuk qahramonning barcha muammolarini hal qiladi.

Mehribon chol yoki momolar:

O'zbek ertaklarida qahramonga yo'l ko'rsatadigan va donolik bilan yordam beradigan mehribon chol yoki momo obrazlari keng tarqalgan. Bu obrazlar qahramonning mehribonligi va hurmat-ehtiromi evaziga unga yordam beradi.

Hayvonlar yordamchiligi:

O'zbek ertaklarida ham hayvonlar yordamchi sifatida namoyon bo'ladi. Ammo ular ko'pincha qahramon tomonidan qutqarilgan yoki mehr ko'rsatilgan hayvonlardir. Masalan, qahramon bir qushni ozod qiladi, qush esa uning hayotini qutqaradi.

Ingliz va o'zbek sehrli yordamchilarining o'xshashliklari:

- Mehribonlikka javob berish:

Har ikkala madaniyat ertaklarida yordamchilar ko'pincha qahramonning mehribonligi, halolligi va yaxshi xulq-atvori evaziga yordam beradi.

- Ingliz ertaklarida pari yoki hayvon qahramonga yaxshilik qilgani uchun yordam beradi.

- O'zbek ertaklarida esa chol, momo yoki hayvon qahramonning samimiyligi va odobiga qarab yordam beradi.

- Sehrli kuchga ega bo'lish:

Har ikkala madaniyatdagi yordamchilar g'ayritabiiy kuchlarga ega. Bu kuchlar bilan ular qahramonga sinovlarni yengishda ko'maklashadi.

- Qahramonni sinovlardan o'tkazish:

Ingliz va o'zbek ertaklarida yordamchilar qahramonni birinchi sinovdan o'tkazishi mumkin. Bu sinovdan muvaffaqiyatli o'tgan qahramon yordamga loyiq deb topiladi.

Ingliz va o'zbek sehrli ertaklarining o'xshash tomonlari ko'p bo'lgani bilan, farqli tomonlari ham sezilarli darajada bor. Shulardan biri madaniy va geografik xususiyatlari:

- Ingliz ertaklari: Ko'pincha o'rmonlar, qal'alar, qirolliklar va afsonaviy joylar tasvirlanadi. Masalan, "Jek va loviya daraxti" yoki "Qizil qalpoqcha" kabi ertaklarda o'rmon muhitiga e'tibor qaratiladi.

- O'zbek ertaklari: Ko'proq cho'l, tog', dasht va sharqona qishloq muhitida kechadi. Masalan, "Bola va dev", "Zumrad va Qimmat" kabi ertaklarda sharqona o'ziga xoslik seziladi.

Shuningdek har ikkala xalqlar sehrli ertaklaridagi qahramonlarning ijtimoiy mavqei ham turlicha. Masalan:

- Ingliz ertaklarida ko'pincha qirollar, shahzodalar yoki malikalar ishtirok etadi.

- O'zbek ertaklarida esa oddiy dehqon, cho'pon yoki kambag'al yigit qahramon bo'lib, o'z mehnati va jasorati bilan muvaffaqiyatga erishadi.

Sehrli elementlarning qo'llanilishida o'zbek xalq sehrli ertaklari o'zining sharqonaligi bilan ajralib turadi

- Ingliz ertaklarida ko'proq peri, afsungar va sehrli buyumlar (masalan, sehrli tayoq, sehrli oyna) uchraydi.

- O'zbek ertaklarida dev, pari, ajdaho kabi sharqona mifologik obrazlar ko'proq uchraydi.

Har ikkala xalqlarning sehrli ertaklar axloqiy mavzulari ham turlicha:

- Ingliz ertaklari odatda individualizmni, ya'ni qahramonning o'z aql-zakovati va intilishi bilan muvaffaqiyatga erishishini targ'ib qiladi.

- O'zbek ertaklari esa jamoaviylikni, ya'ni oila, jamoa yoki katta avlodning yordami va qo'llab-quvvatlashi bilan muvaffaqiyatga erishishni ko'proq ta'kidlaydi.

Xulosa

Ingliz va o'zbek xalq sehrli ertaklari har ikkala xalqning madaniyati, urf-odatlar, hayot tarzini aks ettiruvchi boy folklor manbaidir. Ushbu maqolada ularning o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilinar ekan, quyidagi muhim xulosalarga kelindi:

1. Qahramonlarning sinovdan o'tish jarayoni ikki xalq ertaklarida muhim o'rin tutadi. Har ikki madaniyatda qahramonlar jasorat, halollik va mehribonlik kabi fazilatlar orqali sinovlardan muvaffaqiyatli o'tadi.

2. Geografik va madaniy muhit ertaklar mazmuniga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ingliz ertaklari o'rmonlar, qal'alar va qirolliklar atrofida kechsa, o'zbek ertaklarida cho'l, tog' va qishloq manzaralari ustuvorlik qiladi.

3. Ijtimoiy mavqe jihatidan ingliz ertaklarida qirollik vakillari (shahzoda, malika) bosh qahramon bo'lsa, o'zbek ertaklarida oddiy dehqon, cho'pon yoki kambag'al yigit qahramonlik timsoli sifatida ko'rsatiladi.

4. Sehrli yordamchilar har ikkala madaniyatda ham qahramonlarga yordam beruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ingliz ertaklarida parilar, sehrgarlar va sehrli

hayvonlar ko'p uchrasa, o'zbek ertaklarida pari, dev, ajdaho va donishmand chol yoki momolar muhim rol o'ynaydi.

5. Axloqiy mazmun nuqtai nazaridan, ingliz ertaklari individualistik yondashuvni – ya'ni shaxsiy mehnat va aql bilan muvaffaqiyatga erishishni targ'ib qiladi. O'zbek ertaklari esa jamoaviylik, oilaviy yordam va insoniy qadriyatlar asosida muvaffaqiyat sari yetaklaydi.

Shunday qilib, ingliz va o'zbek sehrli ertaklarini tahlil qilish orqali nafaqat folklordagi badiiy vositalarni, balki har bir xalqning qadriyatlari, dunyoqarashi va tarbiyaviy tamoyillarini chuqur anglash mumkin. Bu ertaklar avlodlar orasida axloqiy tarbiya vositasi sifatida bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.